XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 8-iyul VI-67-89-3-49-K/24 Zarbdor tumani

Zarbdor tumanining Zomin, Sh.Rashidov, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining VI-chaqiriq, 67-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Zarbdor tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv) lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qlish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhining Zomin, Sh.Rashidov, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

- Zarbdor tumanining Zomin, Sh.Rashidov, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

- Zarbdor tumanining Zomin, Sh.Rashidov, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (O‘Sulaymonov) ga mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



RUZIYEV ZAFAR SHAROPOVICH

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 8-iyuldagi
VI-67-89-3-49-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Zarbdor tumanining chegarasini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha

TAVSIFI

Zarbdor tumani, Paxtakor tumani va Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanining, chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yoʻli bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1–nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda, *(shimoliy kenglik 40°16'06,818" , sharqiy uzunlik 68°08'06,784").*

A dan B gacha Sirdaryo viloyati yerlari bilan 1– 4 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1208 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 8327 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2950 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1637 metr, so‘ngra sharqiy yoʻnalishda 996 metr masofani oʻtib, yo‘l bo‘yida joylashgan2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'06,022", sharqiy uzunlik 68°18'19,151").*

2 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 6260 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1925 metr masofani oʻtib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'57,063", sharqiy uzunlik 68°23'56,437").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 2881 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 3648 metr masofani oʻtib, Zarbdor tumani Zomin tumani, va Sirdaryo viloyatining Xovos tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, yoʻl boʻyidagi 4-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°15'38,580", sharqiy uzunlik 68°28'27,317").*

B dan D gacha Zomin tumani yerlari bilan 4-23 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

4-nuqtadan chegara chizig‘i 4R33 avtomabil yoʻlining gʻarb tomoni bilan avvaljanubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 166 metr masofada Jizzax bosh zovurini kesib oʻtadi, keyin, janubiy yoʻnalishda 5571 metr masofani oʻtib yoʻl boʻyidagi 5-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°12'33,011", sharqiy uzunlik 68°28'24,725").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i DM-1 kanalni koʻprik boʻylab kesib 4R33 avtomabil yo‘liga o‘tadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 6555 metr masofada kanalni kesib oʻtib yoʻl bo‘yidagi 6-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°09'02,271", sharqiy uzunlik 68°28'40,101").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i 4R33 avtomabil yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1404 metr masofani oʻtib, yoʻl bo‘yidagi 7-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°08'20,366", sharqiy uzunlik 68°29'03,205").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan Yakkabogʻ-15 Yoʻl Patrul Xizmati maskani chegarasiga oʻtadi, va chegarasi boʻylab avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 154 metr keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 29 metr oʻtib, Yakkabogʻ-15 Yoʻl Patrul Xizmati maskani chegarasi boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'17,758", sharqiy uzunlik 68°28'57,399").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi Yakkabogʻ-15 Yoʻl Patrul Xizmati maskani chegarasi boʻylab umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 122 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°08'15,476", sharqiy uzunlik 68°28'53,489").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi A376 avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda yoʻnalishda 2127 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°07'55,272", sharqiy uzunlik 68°27'27,591").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi A376 avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2086 metr masofani oʻtib yoʻl boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'35,469", sharqiy uzunlik 68°26'03,337").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib A376 avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 6509 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'33,097", sharqiy uzunlik 68°21'40,774").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib A376 avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 4597 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'48,857", sharqiy uzunlik 68°18'35,447").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi A376 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 714 metr masofani oʻtib dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'28,403", sharqiy uzunlik 68°18'45,803").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 809 metr masofada kanalni kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'05,203", sharqiy uzunlik 68°18'59,219").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiyyoʻnalishda 68 metr masofani oʻtib, ariqga tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1001 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°04'36,973", sharqiy uzunlik 68°19'16,346").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan haydalma yer chegarasiga oʻtadi, va haydalma yer chegarasi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1144 metr masofani oʻtadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 44 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'5,331", sharqiy uzunlik 68°19'42,442").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 163 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'0,212", sharqiy uzunlik 68°19'44,086").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻylab avval garbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2306 metr masofani oʻtadi, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 3529 metr masofada kanalni kesib oʻtib, temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻyigi 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'28,034", sharqiy uzunlik 68°15'53,804").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 7118 metr masofani oʻtib, temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'22,760", sharqiy uzunlik 68°11'03,818").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 3828 metr masofani oʻtib, temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻyidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°04'36,433", sharqiy uzunlik 68°08'23,893").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 4244 metr masofani oʻtib, Zarbdor, Zomin va Sharof Rashidov tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻyidagi 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'46,736", sharqiy uzunlik 68°05'25,700").*

D dan E gacha Sharof Rashidov tumani yerlari bilan 22-42-nuqtalar oraligʻidagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

22-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1798 metr masofani oʻtib, , temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻyidagi 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'6,680", sharqiy uzunlik 68°04'14,976").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2092 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyidagi 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'28,874", sharqiy uzunlik 68°02'52,128").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib temir yoʻl sim toʻsigʻiga tutashadi va sim toʻsiq boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1389 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'36,127", sharqiy uzunlik 68°01'54,795").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl sim toʻsigʻidan zovurga oʻtadi, va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 300 metr masofada A376 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'45,376", sharqiy uzunlik 68°01'56,287").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 819 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyidagi 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'11,643", sharqiy uzunlik 68°01'57,063").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 512 metr keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 952 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'48,796", sharqiy uzunlik 68°01'24,194").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 661 metr masofani oʻtib, zovur burilishidagi 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'59,158", sharqiy uzunlik 68°01'48,410").*

29-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1246 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'39,959", sharqiy uzunlik 68°02'34,186").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 660 metr masofani oʻtib, yoʻl

boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'56,765", sharqiy uzunlik 68°02'51,322").*

31-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 800 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'08,000", sharqiy uzunlik 68°03'21,746").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 506 metr keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1972 metr masofani oʻtib suv quvuri boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'13,754", sharqiy uzunlik 68°02'26,733").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni suv quvuri boʻylab kesib oʻtadi va quvurning chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 677 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 169 metr masofani oʻtib yoʻl burilishida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'13,800", sharqiy uzunlik 68°01'51,066").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 104 metr keyin, shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 314 metr keyin, umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 611 metr masofani oʻtib, yoʻl burilishida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'44,770", sharqiy uzunlik 68°01'44,412").*

35-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 207 metr keyin, shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 118 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'48,680", sharqiy uzunlik 68°01'32,245").*

36-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1583 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'25,045", sharqiy uzunlik 68°00'33,513").*

37-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan zovurga tutashadi, va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 424 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 669 metr soʻng shimoliy yoʻnalishda 564 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°09'05,173", sharqiy uzunlik 67°59'57,094").

38-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 232 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'04,570", sharqiy uzunlik 67°59'47,317").*

39-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3161 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'44,820", sharqiy uzunlik 67°59'27,050").*

40-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 940 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'10,149", sharqiy uzunlik 67°59'06,101").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1239 metr masofada zovur va kanalni kesib o‘tib, Zarbdor, Sharof Rashidov va Paxtakor tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'43,440", sharqiy uzunlik 67°59'35,285").*

E dan A gacha Paxtakor tumani yerlari bilan 42-1 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

42-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1779 metr keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1530 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'11,909", sharqiy uzunlik 68°00'49,361").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1831 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'5,830", sharqiy uzunlik 68°01'19,987").*

44-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1119 metr masofani bosib o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'39,706", sharqiy uzunlik 68°01'35,644").*

45-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1207 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'17,400", sharqiy uzunlik 68°01'44,441").*

46-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1575 metr masofani o‘tib, zovur chegarasiga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 71 metr masofani o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'58,068", sharqiy uzunlik 68°02'21,664").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 547 metr masofada Jizzax bosh zovurini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'11,141", sharqiy uzunlik 68°02'37,263").*

48-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2108 metr, masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'27,353", sharqiy uzunlik 68°03'45,013").*

49-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 3966 metr, masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'35,894", sharqiy uzunlik 68°06'32,267").*


50-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiyyo‘nalishda 2360 metr, masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'06,062", sharqiy uzunlik 68°08'03,982").*

51-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib, Zarbdor, Paxtakor tumanlari va Sirdaryo viloyatining Sardoba tumani chegara chiziqlari kesishgan joy yo‘l bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'06,818", sharqiy uzunlik 68°08'06,784").*

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 8-iyuldagi
VI-67-89-3-49-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyati Zarbdor tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Sirdaryo viloyati yerlari*
B dan D gacha *Zomin tumani yerlari*
D dan E gacha *Sharof Rashidov tumani yerlari*
E dan A gacha *Paxtakor tumani yerlari*

Shartli belgilar

- Chegaraning burilish nuqtalari
- Viloyatlar chegarasi
- Tumanlar chegarasi